

qilinganda shuningdek, shartnomaning 5.1-bandida belgilangan qoidalardan biri sodir etilganda ushbu harakat sodir yetilganligi yuzasidan ikkinchi tomonni xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi hamda shartnoma shartlari yoki qonun buzilishining inkor etilmaydigan dalillari mavjud bo'lganda, shartnoma taraflari O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatli davlat organlariga murojaat qiladilar.

V. Tomonlarning javobgarligi

- 5.1. Siqilgan tabiiy gazni qabul qilish mazkur shartnomada ko'rsatilgan hajmdan oshgan taqdirda qo'shimcha shartnoma tuziladi.
- 5.2. Mazkur shartnomaning 2.3. bandida ko'rsatilgan shartlar o'z vaqtida bajarilmagan hollarda "Iste'molchi" "Gaz to'ldiruvchi"ga har bir kechiktirilgan kun uchun qarzdorlik summasining 0,4 foizi miqdorida, lekin qarzdorlik summasining 50%dan oshmagan miqdorda penya to'laydi.
- 5.3. Xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, tovar "Gaz to'ldiruvchi" "Iste'molchi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.
- 5.4. Agar ko'rsatilgan xizmatlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalariga (etalonlarga) qonunchilikda yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, "Iste'molchi" xizmatlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, "Gaz to'ldiruvchi"dan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan xizmatlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar ishlar va xizmatlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir.
- 5.5. Siqilgan tabiiy gaz uchun to'lovlarni amalga oshirish maqsadida "Iste'molchi" mol-mulkini garovga qo'yish, kafillik majburiyatlari, "Iste'molchi" qarzi evaziga mol-mulki bilan hisoblashishi notarius tomonidan tasdiqlangan qo'shimcha shartnomalar tuzish orqali amalga oshiriladi.
- 5.4. Tomonlar mazkur shartnomada belgilangan shartlarni bajarmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq javobgar hisoblanadilar.

VI. Fors major

- 6.1. "Gaz to'ldiruvchi" va "Iste'molchi" quyidagi holatlarda gaz to'ldirish va qabul qilish hajmini kamaytirganligi uchun javobgar hisoblanmaydi:
- a).gaz qazib chiqarish konlarida, magistral gaz quvurlarida, shahar, tuman gaz tarmoqlarida, elektr tarmoqlarida kutilmagan avariya xolatlari sodir bo'lganda;
- b).magistral gaz quvurlarida, shahar, tuman gaz tarmoqlarida, elektr tarmoqlarida navbatdagi joriy va kapital ta'mir ishlari, sinovlar o'tkazilganda va payvandlash ishlari davrida.

VII. Shartnoma muddati

- 7.1. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagan kundan kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.
- 7.2.Shartnoma ikki nusxada tuzilib, bir nusxasi "Gaz to'ldiruvchi" da, bir nusxasi "Iste'molchi" da saqlanadi, va bir xil ahamiyatga ega.

VIII. Nizolarni hal etish tartibi